

**XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI
(LOYIHA-SMETA HUJJATLARI TAYYORLASH BO'YICHA)**
23 /22-LS – sonli

“07 aprel 2022 yil

Samarqand sh.

Bizlar “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi (Keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan 2021 yil 28 sentyabrdagi 150-sonli buyruq asosida ish yurituvchi direktor o'rnbosari **L.Barakayev** bir tomonidan va **Bino va Yo'l Loyiha» MCHJ** (Keyingi o'rnlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi **O.Xonkeldiyev** ikkinchi tomonidan “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK xarid komissiyasining 05.04.2022 yildagi 57019-sonli bayonnomasi asosida ushbu shartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning topshirig'i bo'yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: **Pastdarg'om tuman Spitamen va Buyuk Turon ko'chalarini joriy ta'mirlash** uchun loyiha-smeta xujjalalarini belgilangan norma va qiodalariga amal qilingan holda.

1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish. loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarni berish. bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan 8 100 000 (Sakkiz million yuz ming) so'mni tashkil qiladi.

3. TO'LOV TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 15 (o'n besh) foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

3.2. To'lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to'lovlar pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.3. Har bir bosqichda (yoki 1-ilovada ko'rsatilgan ko'chalar) bajarilgan ishlarni uchun joriy moliyalashtirish «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.

3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolangandan so'ng. aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so'ng 30 (o'ttiz) bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

3.5. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlarni uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to'lovni amalga oshira olmaydi va to'lov kechiktirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

3.6. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlarni ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'Iganda;
- ishlarni xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar uchun, shu jumladan. keyinchalik qurilish jarayonida, shunindek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir.

4.2. «Bajaruvchi» ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni. «Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. «Buyurtmachi» ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ga taqdim qiladi.

4.4. «Buyurtmachi» shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish. ishlarning shartnomada ko'rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishida «Bajaruvchi»ga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish. «Bajaruvchi»ning

roziligidiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

4.5. «Buyurtmachi» tomonidan avans to'lovlari o'z vaqtida o'tkazilmagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'loviga va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilganda qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajaradi.

4.7. «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng qurilish ishlari boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallangunga qadar mualliflik nazoratini tashkil etishga mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyati yuklatiladi.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarni bepu'l qayta ishlab chiqishi va buning natijasida keltirilgan zararni to'la shart.

5.2. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini tuzish jarayonida belgilangan ShNK va QMQ rivoja qilishi holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklar yoki «Bajaruvchi» xatosi bilan ko'zga tutilmagan qo'shimcha ishlari va xarajatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Kamchiliklar chiqqan qo'shimcha xarajatlar «Bajaruvchi» tomonidan to'lanadi.

5.3. «Bajaruvchi» o'z hohishi bilan yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan «Buyurtmachi»ning roziligidiz loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilsa, barcha ko'paygan to'lovlarni o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolar uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'ladi.

5.4. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish davomida texnik shartlar, arxitektura rejlashtirish to'plami (APZ), geologik xulosa va ekspertiza uchun to'lovlarni amalga oshiradi.

5.5. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun xujjalari muvofiq belgilanadi.

6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI

6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolangandan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, ushbu hujjatlar va ekspertrizalar xulosasining asl nusxasi «Buyurtmachi»ga taqdim qilinishi lozim.

6.2. «Bajaruvchi» ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandlarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarni «Buyurtmachi» bergan topshiriqda belgilangan muddatlarda bajaradi.

6.3. Ishlar tugagandan so'ng «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» ishlarni topshirish va qabul qilishda dalolatnomasi bilan topshiradi.

6.4. «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holida ikki tomonlarga dalolatnomasi bilan topshiradi.

6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlanadi. Shartnoma tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Agarda shartnoma G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarilmagan taqdirda, «Buyurtmachi» kamida 5 (bes) kun oldin «Bajaruvchi»ni habardor qilgan holda shartnomanini bir tomonlama bekor qilishga huquqiga ega.

6.7. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar beragan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqtini hisoblanadi.

6.8. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun muroja qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

7. KONFIDENSIAL MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «**Bajaruvchi**» konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni «**Buyurtmachi**»dan o'lgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

8. YENGIB BO'L MAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'l maydigan tabiiy falokatlar natijasida kelib chiqsa va agar ushbu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'l maydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar ro'y bergan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'l maydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «**Buyurtmachi**» va «**Bajaruvchi**» ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rinishini muhokama qiladilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlari talablariga rioxalish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiylari bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmslik, shu jumladan noqonuniy to'lovlar taklif qilmaslik, bunday to'lov larga ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakillariga naqd pul yoki boshqa shaklda (lekin cheklanmagan holda) pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu bandda ko'rsatilgan majburiylarni buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo'lgan tartibda ushbu shartnomani bajarishni rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «**Bajaruvchi**» loyihani muddatidan oldin bajargan holda «**Buyurtmachi**» uni mazkur shartnomaning 6-bo'limga asosan qabul qiladi va shartnomaning 3-bo'limida belgilangan tartibda to'lovni amalga oshiradi.

10.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.4. «**Bajaruvchi**» mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, «**Buyurtmachi**»ni xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalg qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga va «**Bajaruvchi**»ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlari uchun nisbatan qo'llaniladi.

10.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan 5 (besh) kunlik muddatda hal etiladi. Belgilangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iktisodiy sudida da'veo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

10.7. «**Buyurtmachi**» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiyligi summasi shartnoma narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan moliyalashtirish kechikkan hollar bundan mustasno.

10.8. «**Bajaruvchi**» tomonidan bajarilgan ishlarni ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «**Buyurtmachi**»ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlarni qiymatining 0,4 foizi

miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiyamatining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

10.10. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagandan va g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng xukuki kuchga kiradi.

10.12. Mazkur shartnomaning amal qilish muddatti 2022 yil 31-dekabrgacha.

10.13. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

"BUYURTMACHI"

Nomi: "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK

Manzili: Samarqand sh. A.Nabiyevo ko'chasi 3-uy

Bank: Samarqand sh. AKIB "Ipoteka bank"

L/s: 304521860184057045  320118093


STIR: 207254149

MFO: 00312

OKED: 70220

Direktor o'rinosi 

A.Nabiyevev

Mazkur shartnoma 29.11.1998 yili No. №/M/urituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy – to'g'risida»gi Qonunning 21-moddasiga asosan huquqiy  tuzildi. Shartnoma matni amaldagi qonunchezik talablariga riyoja  shakllantirilishiga nisbatan tadbiq etilmaqdashi  LOTIHA

Yurist 

Moliya vazirligi g'aznachiligi X/R 234020003000100001010
Bank nomi: Markaziy Bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi
Manzili: Samarqand shaxari Kuksaroy maydoni №1
STIR (INN)201122919 MFO 00014 OKED:97160
Tel 2335853, 231-11-52

Ro'yxatga olindi. 

"BAJARUVCHI"

Nomi: «BINO VA YO'L LOYIXA» MCHJ

Manzili: Samarqand sh. A.Nabiev ko'chasi 3-uy

Bank nomi : AT "Aloqabank Samarqand filiali

Xisob raqami: 22626000500963451001

MFO: 00401

СТИР (ИНН) : 305956641

ОКЭД : 71110

Direktor:  O.Xonkeldiyev





“TASDIQLAYMAN”
“Samarqand mintaqaviy yo'larga
buyurtmachi xizmati” DUK
direktor o'rinosari komissiya raisi

L. Barakaev

BAYONI

№ 1/Б-25-22

Samarqand shahri

«07» aprel 2022 y.

Raislik qiluvchi

L. Barakaev

Ishtirok etgan komissiya a'zolari:

Ermamatov Sodiqjon
Dehqonboyevich

Komissiya a'zosi, Bosh muxandis

Bekmurodov Eldor
Rashidovich

Komissiya a'zosi, Texnik kuzatuva bajarilgan ishlarni
qabul qilish bo'imi boshlig'i

Shakatov Faridun
Alisherovich

Komissiya a'zosi, Loyixa ta'minoti bo'imi boshlig'i

Abduraimo Sobir
Mamarajabovich

Komissiya a'zosi, Ishlab chiqarish va texnik bo'im
boshlig'i

Shuxrat Tursunov
Istatovich

Komissiya kotibi, Tenderlarni tashkil etish va
shartnomalar bo'imi boshlig'i.

1. Komissiya a'zolari egallab turgan lavozimidan boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning
tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan xodim kiritiladi.

KUN TARTIBI:

Kun tartibidagi masala yuzasidan “Samarqand mintaqaviy yullarga buyurtmachi xizmati” DUK direktor o'rinosari v.b L. Barakaev so'zga chiqib Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan Samarqand viloyati ichki avtomobil yo'larini joriy ta'mirlash bo'yicha 2022 yil uchun manzilli ro'yxatiga asosan

1. Samarkand shaxar Siyob xududi Joysuy MFY ichki yo'i,
2. Pastdarg'om tumanı Nayman MFY Sayyora Bozorova kuchasi,
3. Pastdarg'om tumanı Ibn Sino kuchasi,
4. Pastdarg'om tumanı Nodirabegim kuchasini,
5. Pastdarg'om tumanı Spitamen va Buyuk Turon kuchalari,
6. Pastdarg'om tumanı Sulton Urdashev nomli kuchasi,
7. Pastdarg'om tumanı Nizomiy kuchasi
ko'chalarini joriy ta'mirlash uchun loyiha-smeta xujjalari ishlab chiqish
to'g'risida.

(L.Barakaev, S.Ermamatov, E.Bekpulatov, S.Abduraimov, F.Shakatov)

“Samarqand mintaqaviy yullarga buyurtimachi xizmati” DUK tomonidan 2022 yil 19 martda Yzbekiston Respublikasi Tovar va xom-ashyo birjasining elektron portaliga

1. Samarkand shaxar Siyob xududi Joysuy MFY ichki yo'i - №57118-lot
2. Pastdarg'om tumani Nayman MFY Sayyora Bozorova kuchasi №57079-lot
3. Pastdarg'om tuman Ibn Sino kuchasi №57038-lot
4. Pastdarg'om tuman Nodirabegim kuchasini №57029-lot
5. Pastdarg'om tuman Spitamen va Buyuk Turon kuchalari №57019-lot
6. Pastdarg'om tuman Sultan Urdashev nomli kuchasi №56999-lot
7. Pastdarg'om tuman Nizomiy kuchasi №56976-lot

raqamlari bilan e'lon joylashtirildi.

Mazkur lotlar bo'yicha 2022 yil 5 apreldagi eng yaxshi takliflarni tanlash savdosini o'tkazish bo'yicha davlat xaridlari komissiyasining elektron portali orqali shakllangan bayonnomalariga asosan e'lon yakuniga ko'ra Komissiya a'zolari tomonidan “Bino va yo'l loyiha”MChJ korxonasi g'olib deb topilganligini inobatga olib:

QAROR QILINDI:

1. Yzbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi “Davlat xaridlari to'g'risida”gi 684-sonli Qonunining 62-moddasi 3-bandiga asosan komissiya bayonnomasi davlat xaridlari elektron tizimiga muxokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtirilgan bayonnomma bo'yicha xech qanday e'tirozlar yoki qo'shimcha takliflar kelib tushmaganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Direktsiya Tenderlami tashkil etish va shartnomalar bo'imi boshlig'i. Sh.Tursunovga:

Yuqoridagilardan kelib chiqib hamda komissiya a'zolarining 2022 yil 4 apreldagi elektron bayonnomalariga asosan g'olib “Bino va yo'l loyiha”MChJ korxonasi bilan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda shartnomada tuzilsin.

3. Loyixa ta'minoti bo'imi boshlig'i F.Shakatov sifat darajasi nazorat qilinsin.

Komissiya a'zolari

Ermamatov Sodiqjon Dehqonboyevich

Bekmurodov Eldor Rashidovich

Shakatov Faridun Alisherovich

Abduraimo Sobir Mamarajabovich

Shuxrat Tursunov Istatovich